



**The image of a religious and mystical scholar in Usman Kochkar's drama
"Imam Bukhari"**

Osomiddinova Gulkhayo

Mother tongue and literature teacher at Termez city secondary school No. 7

Abstract

This article analyzes the drama "Imom Buxoriy" by Usmon Qo'chqor. The study focuses on the artistic interpretation of Imam al-Bukhari as a religious and Sufi scholar within the work. It examines the protagonist's pursuit of knowledge, spiritual endurance, faith, and moral purity through literary analysis. The paper also highlights the central idea of the drama, which revolves around knowledge, truth, and faith, as well as the core conflict built on the opposition between enlightenment and ignorance. Furthermore, the system of characters, Sufi concepts, dramatic techniques, and the educational significance of the work are explored from a literary-critical perspective. As a result, the drama is evaluated as an important example of Uzbek historical dramaturgy.

Keywords: Imam al-Bukhari, Usmon Qo'chqor, historical drama, poetic drama, conflict, character, Sufism, religious scholar, knowledge and ignorance, faith, spiritual purification, dramaturgy, artistic interpretation, historicity, literary studies.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Usmon Qo'chqorning "Imom Buxoriy" dramasi tahlil qilinadi. Asarda buyuk muhaddis Imom Buxoriy obrazi diniy-tasavvufiy alloma sifatida yoritilishi ilmiy asosda o'rganiladi. Tadqiqotda allomaning ilm yo'lidagi mashaqqatlari, iymon-e'tiqodi, sabr-bardoshi va ruhiy poklanish jarayoni badiiy vositalar orqali tahlil etiladi. Shuningdek, dramadagi asosiy g'oya — ilm, haqiqat va iymon masalalarining badiiy talqini hamda konfliktning ilm va jaholat o'rtasidagi kurash asosida qurilgani ochib beriladi. Maqolada obrazlar tizimi, tasavvufiy qarashlar, dramatik vositalar va asarning tarbiyaviy ahamiyati adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yoritiladi. Natijada drama o'zbek tarixiy dramaturgiyasining muhim namunasi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Imom Buxoriy, Usmon Qo'chqor, tarixiy drama, she'riy drama, konflikt, obraz, tasavvuf, diniy alloma, ilm va jaholat, iymon, ruhiy poklanish, dramaturgiya, badiiy talqin, tarixiylik, adabiyotshunoslik.

O'zbek dramaturgiyasida tarixiy va diniy siymolar obrazini yaratish muhim



badiiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, buyuk muhaddis va alloma Imom Buxoriy siymosi adabiyotda chuqur hurmat va ehtirom bilan tasvirlangan. Mustaqillikka erishilgach buyuk ajdodlarimiz xotirasini tiklash maqsadida qator farmon va qarorlar qabul qilindi, ularning tavalludining ming yilliklari nishonlandi. Shu qatorda ulug‘ muhaddis olim Imom Buxoriyning ham 1998-yil oktabr oyida hurmatli birinchi prezidentimiz I.A. Karimov qarorlari bilan 1225 yillik yubileyi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan allomaning hayot yo‘li va ilmiy merosi keng o‘rganildi. Adabiyot sohasida ham Buxoriydek so‘nmas bilim egasi haqida qator asarlar hamda dramalar yaratildi. Ulardan Muhammad Ali Ergashevning „Saodat yo‘li“, Rustam Madiyevning „Bir kechalik tush“, Sobir Ehsanning „Muhaddis“, Jasur Rasultoyevning „Muqaddas ziyo“, Tohir Julmatovning „Imom al Buxoriy“, Mahbuba Hamidovaning „Buxoriy muhabbati“ kabi asarlari ajralib turadi. Xususan, ushbu vaqtda alloma tavalludiga bag‘ishlangan tanlovda g‘olib bo‘lgan drama Usmon Qo‘chqorning “Imom Buxoriy” dramasidir. Usmon Qo‘chqorning “Imom Buxoriy” dramasi ana shu an’anani davom ettirib, alloma hayoti, ilmiy merosi hamda uning tasavvufiy-diniy qarashlarini badiiy talqin qiladi. Mazkur maqolada dramadagi Imom Buxoriy obrazi diniy-tasavvufiy alloma sifatida tahlil qilinadi. Asarda allomaning ilm yo‘lidagi mashaqqatlari, ruhiy poklanish jarayoni va tasavvufiy qarashlari yetakchi o‘rin tutadi. Muallif bu obraz orqali haqiqiy din yo‘lidagi haqiqatlar uchun butun umrini bag‘ishlagan inson timsolini yaratishga intiladi. Drama markazida ilm, haqiqat va iymon masalasi turadi. Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov o‘zining „Sardaftar sahifalari“ kitobida ushbu drama haqida quyidagicha fikrlarni yozgan: „Asarda sahnaviylik kuchli: dialoglar keskin, ziddiyatlar aniq va dramatik rivoj izchil. Bu esa uni sahna uchun muvaffaqiyatli asarga aylantiradi.“¹ Asar davomida alloma hayoti orqali quyidagi g‘oyalar ilgari suriladi: “Ilm — bu faqat bilish emas, u qalb pokligi bilan o‘lchanadi. ”Mazkur fikr dramadagi asosiy g‘oyaviy ustunlardan biri bo‘lib, ilmning tasavvufiy mohiyatini ochib beradi.

“Imom Buxoriy” dramasi tarixiy-biografik asar bo‘lib, unda buyuk allomaning ilm yo‘lidagi zahmatlari, sinovlari, iymon-e‘tiqodi va insoniy fazilatlarini tasvirlanadi. Asarning asosiy g‘oyasi — ilm, sabr, poklik va haqiqat yo‘lida xizmat qilishning ulug‘ligini ko‘rsatishdir. Dramada quyidagi masalalar yetakchi o‘rin tutadi:

Haqiqiy ilm egasining jamiyatdagi o‘rni
Iymon va sabrning ustuvorligi
Haqiqatni himoya qilish

¹ Sharafiddinov O. Sardaftar sahifalari. Maqolalar, xotiralar. Toshkent. „Yozuvchi“ nashriyoti, 1999.



Ruhiy poklanish va tasavvufiy kamolot

Dramada Imom Buxoriy avvalo buyuk muhaddis va diniy alloma sifatida tasvirlanadi. U hadis ilmining yetuk bilimdoni bo‘lib, o‘z umrini Payg‘ambar hadislarini to‘plash va tekshirishga bag‘ishlagan. Obrazning asosiy jihatlari: ilmga sadoqat – u har qanday qiyinchilikka qaramay ilm izlashdan to‘xtamaydi; adolat va haqiqatparvarlik – faqat ishonchli hadislarini qabul qiladi; halollik – ilmda yolg‘on va soxtalikni qat‘iyan rad etadi.

Bu jihatlari uni oddiy olim emas, balki tasavvufiy kamolotga erishgan inson, haqiqiy diniy yetakchi sifatida gavdalantiradi. Asarda Imom Buxoriy faqat ilm egasi emas, balki ruhiy kamolotga erishgan tasavvufiy shaxs sifatida ham tasvirlanadi. Bu haqida adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulov quyidagicha ta‘kidlaydi: „Muallif tarixiy haqiqatni buzmaganda, uni badiiy tafakkur orqali boyitadi. Natijada asar nafaqat tarixiy, balki estetik qiymatga ham ega bo‘ladi.“²

Buxoriy obrazining tasavvufiy jihatlari quyidagilar:

1. Zuhd va taqvo

U dunyoviy manfaatlardan voz kechib, Alloh yo‘lida yashaydi. Boylik, mansab uni qiziqitirmaydi. Asarda turli o‘rinlarda kelgan ushbu fikrlar buni isbotlaydi: “Dunyo ortidan yugurgan qalb haqiqatni ko‘ra olmaydi.” Bu iqtibos tasavvufning asosiy g‘oyalaridan biri — dunyoga berilmaslikni ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda insoniylik, Alloh yaratgan yaratqilarga jonzotlar va go‘zalliklarga ham muhabbat qo‘yish kabilarga da‘vat qilinadi. Xususan, Nishopurda bir shoirning sevgi haqidagi she‘rlari tanqid qilinganda Ismoil Buxoriy tomonidan bu holat ijobiy tahlil etilib, Allohga muhabbat u yaratgan go‘zalliklarni sevishdan boshlanadi degan g‘oyani ilgari suradi.

2. Sabr va bardosh

Asarda alloma ko‘plab sinovlarga duch keladi: safar mashaqqatlari, hasadgo‘ylarning qarshiligi, surgun va rad etilish. Ammo u bularni sabr bilan yengadi. “Sabr qilgan banda — Allohga yaqin bandadir.” Bu fikr orqali uning ruhiy bardoshi va iymoni yuksak darajada ekanligi namoyon bo‘ladi. U o‘z vatanida tinchlik va insonlarga ilm tarqatish maqsadida kelgan bo‘lsa-da, mahalliy mutaassib shaxslar – Zuhayliy, Abu Miskin, Asror Qoziy, Muxtasib, Xaris ibn Abul Varqo kabi insonlar tomonidan tuhmat va bo‘htonlarga duch keladi. Bu orqali yurt podshohi va olomon xalqni Buxoriyga qarshi gijgijlashga va uning fikrlarini teskari izohlashga va undan qutulishga harakat qiladilar.

² Rasulov A. Ilmi g‘aribani qo‘msab. Toshkent. „Ma‘naviyat“, 1998.



3. Ruhiy poklik

Imom Buxoriy obrazi ichki poklik, niyatning tozaligi orqali namoyon bo'ladi. U har bir ishni ixlos bilan bajaradi. "Ilmni pok niyat bilan o'rganmagan inson uni ko'tara olmaydi." Bu iqtibos orqali tasavvufdagi ixlos tushunchasi ochiladi.

4. Ilmni ibodat darajasiga ko'tarish

Tasavvufda ilm — ibodatning bir shakli sifatida qaraladi. Dramada bu g'oya aniq ifodalanadi. Buxoriy butun umrini 40 yillik vaqtini hadis ilmni egallash va ularni saxix va nosaxixga ajratish, avlodlarga to'g'ri ilmni yetkazish yo'lida o'z shaxsiy ehtiyojlari va yaqinlarini ham keyingi o'ringa qo'ygan shaxs sifatida tasvirlanadi. Dramaturgiya epik va lirik turdan farq qiluvchi ma'lum jihatlarga ega. Dramalar shakliy jihatdan ba'zan lirik turga, voqealar rivoji yo'sinida epik tur janrlariga o'xshab ketsada, ammo o'z talablari va qoidalariga ega. Ulardan biri va asosiysi konflikt masalasidir. Adabiyotshunos G'ulomjon Atadjanov dramadagi asosiy ziddiyatlarni quyidagicha izohlaydi: „Dramaning markazida ilm va jaholat o'rtasidagi keskin kurash turadi. Imom Buxoriy obrazi orqali haqiqatga sadoqat va e'tiqodiy qat'iyat badiiy talqin etiladi.”³ Ushbu asarda tashqi konflikt turi, ya'ni obrazlar o'rtasida o'zaro munosabatlarda yuzaga chiqadi va bular quyidagilar:

Haqiqat va yolg'on o'rtasidagi kurash

Ilm va jaholat qarama-qarshiligi

Alloma va hasadgo'ylar o'rtasidagi ziddiyat

Muallif qahramonning ichki kechinmalarini ham chuqur yoritadi. Alloma ko'pincha tafakkur va ibodat bilan band bo'ladi. "Qalb jim bo'lmaguncha, ilm tilga chiqmaydi." Bu sujet chizgilari orqali Imom Buxoriy obrazining quyidagi jihatlari ochiladi:

- qat'iyat

- iymon mustahkamligi

- ruhiy kuch

Usmon Qo'chqor obraz yaratishda quyidagi vositalardan foydalanadi: tarixiy haqiqatga tayanish va dialoglar orqali xarakter ochish, ichki kechinmalarni tasvirlash, ramziy va ma'naviy qatlamlarni qo'llash. Natijada Imom Buxoriy obrazi tirik, ishonarli va ta'sirchan chiqadi. Adabiyotshunos Dilfuza Rahmatullayeva obrazlar tizimiga baho berib shunday yozadi: „Asarda ijobiy va salbiy kuchlar qarama-qarshiligi aniq berilgan bo'lib, Imom Buxoriy timsoli ma'naviy poklik va ilmning yuksak namunasi sifatida ideallashtiriladi.”⁴

³ Atadjanov G'. „Imom Buxoriy” (U.Qo'chqor) tarixiy she'riy dramasi konflikt turlari// Qo'qon DPI Ilmiy xabarlar jurnali, 2025.

⁴ Rahmatullayeva D.N. XX asr o'zbek dramaturgiyasi va teatr san'atida tarixiy drama (dissertatsiya), Toshkent, 2004.



Drama quyidagi jihatdan muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega:

yoshlarni ilmga rag‘batlantiradi

halollik va iymonning ahamiyatini ko‘rsatadi

sabr va matonatga o‘rgatadi

diniy va ma’naviy qadriyatlarga hurmat uyg‘otadi.

Adabiyotshunos va yozuvchi Naim Karimov aytganidek: „Imom Buxoriy siymosi orqali yosh avlodni ilmga, halollikka va e’tiqodga chorlovchi kuchli tarbiyaviy g‘oya ilgari suriladi.”⁵

Xulosa

Usmon Qo‘chqorning “Imom Buxoriy” dramasi o‘zbek dramaturgiyasida muhim o‘rin egallagan asarlardan biridir. Unda Imom Buxoriy obrazi nafaqat buyuk muhaddis, balki tasavvufiy kamolotga erishgan alloma sifatida yuksak badiiy darajada tasvirlangan. Asar orqali muallif ilm, iymon, sabr va ruhiy poklik kabi insoniy fazilatlarning abadiy qadriyat ekanini ta’kidlaydi. Imom Buxoriy obrazi esa o‘quvchi va tomoshabin uchun ibrat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. “Ilm egasi bo‘lish oson, lekin unga munosib bo‘lish qiyin.” Bu fikr yoshlar uchun muhim xulosa vazifasini bajaradi.

“Haqiqat yo‘li mashaqqatli, ammo u abadiy nurga eltadi.”

Asar orqali muallif insonni komillikka yetaklovchi asosiy qadriyatlarni — ilm, iymon va poklikni ulug‘laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atadjanov G’. „Imom Buxoriy” (U.Qo‘chqor) tarixiy she’riy dramasi konflikt turlari’// Qo‘qon DPI Ilmiy xabarlar jurnali, 2025.

2. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent. „O‘zbekiston” nashriyoti, 2008.

3. Usmon Qo‘chqor. „Imom Buxoriy” dramasi. Toshkent. „Adabiyot” nashriyoti, 2020.

4. Rahmatullayeva D.N. XX asr o‘zbek dramaturgiyasi va teatr san’atida tarixiy drama (dissertatsiya), Toshkent, 2004.

5. Rasulov A. Ilmi g‘aribani qo‘msab. Toshkent. „Ma’naviyat”, 1998.

6. Sharafiddinov O. Sardafar sahifalari. Maqolalar, xotiralar. Toshkent. „Yozuvchi” nashriyoti, 1999.

⁵ Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent. „O‘zbekiston” nashriyoti, 2008.